



HAYOT DAVOMIDA O'QISH TAMOYILINING TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Yaxyoyeva Roxila Raxmanaliyeva

Xovos tumani 30-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani

1-toifali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7269622>

ARTICLE INFO

Received: 11st October 2022

Accepted: 20th October 2022

Online: 31st October 2022

KEY WORDS

"Uzluksiz kasbiy ta'lim"
elektron platformasi, hayot
davomida o'qitish tamoyili,
malaka oshirish.

Yurtboshimizning 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq masalalarga ham alohida e'tibor qaralib, sohadagi rahbar va pedagog-xodimlarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi [1]. Har qanday ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun u ta'lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga xos bo'lib, ayniqsa, katta yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb

ABSTRACT

Maqolada ta'lim samaradorligini yaxshilashda Prezidentimiz qaror va farmonlarining hamda hayot davomida o'qitish tamoyilining o'rni haqida so'z borgan. Yana "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi haqida ma'lumotlar berilgan.

etadi. Pedagog-xodim malaka oshirish kursiga, odatda, yangilik olish, o'qitishning yangi metod va texnologiyalarini o'zlashtirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida boradi. Biroq kasbiy ehtiyoj har bir pedagogda turlicha bo'ladi. Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirishda uzluksiz malaka oshirishning elektron ta'lim (e-learning), individual ta'lim traektoriyasi (personal learning space) va muhiti (personal learning environment), hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasining tatbiq etilishi muhim hisoblanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanishning elektron ta'lim (e-learning) tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- vebinar
- Onlayn-muloqot
- Masofaviy ta'lim
- Platforma
- Seminar-forum [5].

Ta'lim samaradorligini ta'minlash va hayot davomida o'qitish hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy mutaxassislar jalb qilinyapti va ularning tajribalari o'rganilmoqda.



Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish borasida 2019-2020-yillar davomida qator xorijiy mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik ishlari amalga oshirildi. AQShdan professor Judi Smetana, Germaniyadan doktor Xanish, Malayziyadan doktor Sazali Yusuf, amerikalik xalqaro ta'lim eksperti Jon Tulli hamda o'quv dasturi va darsliklar ishlab chiqish bo'yicha mutaxassis Benjamin Piper bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslarining o'quv-reja va dasturlari takomillashtirildi. Axborot, bilim, tajribalar har kuni yangilanyapti. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish ta'limi tizimini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Bugun dunyoning yetakchi davlatlaridagi malaka oshirish ta'limi 20-25 yildan buyon "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida tashkil etilyapti.

Lifelong learning – bu kasbiy va shaxsiy sabablardan ilhomlangan yangi bilimlarni tinimsiz, ixtiyoriy izlash kontseptsiyasi.

Lifelong learning tarkibiy qismi:

1. Bilimlarni o'rganish
2. Mahoratni oshirish
3. O'zgarayotgan jamiyat bilan muloqot qilishni o'rganish (nizolarni hal qilish, aloqa qobiliyatlarini rivojlantirish, sotsializatsiya, boshqa madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik va boshqalar).
4. O'z - o'zini rivojlantirish (jismoniy, intellektual, hissiy, estetik sezgirlik va ma'naviyat) [6].

Mening fikrimcha, "hayot davomida o'qish"ning yaqqol misolini biz Finlandiyada ko'rishimiz mumkin. 70-yillardayoq Finlandiyada malakali o'qituvchilar tayyorlash maqsad qilib olingan. Finlandiyada bo'lajak o'qituvchilar

uchun magistratura majburiydir. Juda kam holatlarda bakalavr darajasiga ega bo'lgan iqtidorli pedagog o'quvchilarga dars berishi mumkin. Berilayotgan ta'lim orasida nomzodlarga tanqidiy, ijodiy va erkin fikrlash mantig'idan foydalanishni o'rgatish ham maqsad qilingan. Rivojlanayotgan davrga moslashishlari uchun endi ish boshlagan o'qituvchilarga doimiy ravishda hamkasblari bilan hamqadam bo'lishlari, tajriba va ma'lumotlarini almashish, bilimlarini doimo harakatda dinamik saqlashlari uchun, maktablarda eng kamida haftada bir marta malaka oshirish talimi tashkil etiladi [3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, hayot davomida o'qishning foydali jihatlari juda ko'p, atrof muhitda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklardan o'z vaqtida xabar topishga, aloqalarni kengayishiga yordam beradi. Pedagoglar hayot davomida muntazam o'qib, yangi usullardan xabardor bo'lib, o'z ustida ishlasalar, ta'lim sifatida ham katta o'zgarishlar bo'ladi. Uzluksiz malaka oshirishda pedagoglarning ta'lim olish jarayonlari maxsus elektron platforma asosida avtomatlashtirildi, bu pedagoglar uchun qulaylik va imkoniyatlar yaratdi, hamda bu orqali inson omili minimallashtirildi. Doimo izlanishda bo'lib mehnat qilgan insonning dunyoqarashi keng, ma'naviy dunyosi boy bo'ladi. Shu o'rinda Singapur bosh vaziri Li Kuan Yuning bir gaplari yodimga tushdi: "Umr bo'yi o'quvchi bo'ling, eng yaxshi g'oyalarni o'zlashtiring". Har qanday mutaxassislikni egallash uchun yaxshi o'qish va tanlangan kasbga ko'proq qiziqish kerak.

References:



1. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 06. 11. 2020.
2. "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori 25. 01. 2021.
3. Sharofat Jiyanbekova: "Finlandiyada o'qituvchining saradorligi, kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarining muvaffaqiyatga erishish yo'llari" maqolasi.
4. Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti matbuot xizmati
5. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
6. [http://av. tdi. uz](http://av.tdi.uz)